O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

“O‘ZBEKISTONDA TEATR VA MUSIQA SAN’ATINI YANADA RIVOJLANTIRISHNI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RAG‘BATLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA”GI FARMONNI AMALGA OSHIRISH MASALALARI HAQIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonda teatr va musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1995-yil 20-oktabrdagi 1280-son Farmonini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 20-oktabrdagi PF-1280-son Farmoni tatbiq etiladigan Respublika teatr-konsert tashkilotlari, ta’lim va boshqa madaniy-ma’rifiy muassasalari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 20-oktabrdagi PF-1280-son Farmon tatbiq etiladigan Teatr-konsert va boshqa madaniy-ma’rifiy muassasalarning ma’muriy-boshqaruv, badiiy-rahbar, badiiy, artist, texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlari, shuningdek, mutaxassislarining, ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari hamda konsertmeysterlarning lavozimlari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Madaniyat ishlari vazirligi, Mehnat vazirligi va Ijtimoiy ta’minot vazirligi bilan birgalikda ikki hafta muddatda farmonning 1-ilovasiga muvofiq lavozim maoshiga uzoq muddat xizmat qilganligi uchun har oyda taqdirlash puli to‘lash Tartibini hamda ishdan bo‘shagan taqdirda farmonning 2-ilovasiga muvofiq asosiy pensiyaga qo‘shiladigan har oylik ustamalar to‘g‘risidagi Nizomni ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta’minot vazirligi va Madaniyat ishlari vazirligi teatr-konsert tashkilotlarining hamda o‘quv yurtlarining pensiyaga chiqqan xodimlari tarkibini aniqlasinlar va 1995-yil 1-noyabrdan boshlab ularning pensiyalari miqdorlarini qayta hisob-kitob qilsinlar.

Pensiyalarga ustamalar O‘zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan to‘lansin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligi Madaniyat vazirligining buyurtmanomasi bo‘yicha 1996-yildan boshlab, 1-bandda ko‘rsatilgan teatr-konsert tashkilotlari va o‘quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun 3-ilovaga* muvofiq zarur mablag‘lar ajratishni nazarda tutsinlar.

* 3-ilova berilmaydi.

6. Toshkent davlat konservatoriyasining yangi binosi qurilishi uchun:

uni loyihalashtirish va qurish bo‘yicha buyurtmachi etib — O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi;

bosh loyihalovchi etib — “Toshshaharloyiha” instituti;

bosh pudratchi etib — “Toshkentuyjoyinvestqurilish” korporatsiyasi belgilansin.

“O‘zistiqbolstat” davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi konservatoriya qurilishini investitsiya dasturiga kiritsinlar hamda 1996-yildan boshlab uning loyihalashtirilishi va qurilishi uchun Madaniyat ishlari vazirligiga markazlashtirilgan kapital mablag‘lar limitlari ajratishni nazarda tutsinlar.

7. Repertuar siyosatini tubdan yaxshilash va yangi asarlarni sahnalashtirish sifatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi va Moliya vazirligi yangi opera, drama, musiqa, badiiy hamda boshqa san’at asarlarini yaratganlik uchun to‘lanadigan mualliflik sahnalashtirish va ijrochilik haqi stavkalari hamda miqdorlarini qayta ko‘rib chiqishga oid takliflarni bir oy muddatda tayyorlasinlar va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritsinlar.

8. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda mintaqalarda gastrol-konsert faoliyatini jonlantirishga, teatr-konsert tashkilotlarining ijodiy va ishlab chiqarish faoliyatini o‘z daromadlari manbalari hamda homiylarni jalb etish hisobiga yaxshilashga yo‘naltirilgan aniq tadbirlarni ishlab chiqsinlar.

9. “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi, “O‘zbeksavdo” aksiyadorlik kompaniyasi, “Toshshaharyo‘lovchitrans” aksiyadorlik kompaniyasi, “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi, “O‘zkommunxizmat” agentligiga Madaniyat vazirligining taklifiga binoan O‘zbekiston Respublikasiga gastrolga keluvchi jamoalar va alohida ijrochilarning transportda yurishi, yashashi, ovqatlanishi uchun milliy valyuta (so‘m)da haq olishga ruxsat berilsin.

10. Respublika teatr-konsert tashkilotlariga taklif etilgan artistlarga va sahnalashtiruvchi guruhga shartnoma asosida yakka tartibdagi kontraktlar bo‘yicha gonorar to‘lashga ruxsat berilsin.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari S.S. Saidqosimov zimmasiga yuklansin.

Vazirlar Mahkamasining Raisi I. KARIMOV

Toshkent sh.,
1995-yil 28-oktabr,
415-son

Vazirlar Mahkamasining
1995-yil 28-oktabrdagi 415-son qaroriga
1-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 20-oktabrdagi PF-1280-son Farmoni tatbiq etiladigan respublika teatr-konsert tashkilotlari, ta’lim va boshqa madaniy-ma’rifiy muassasalar

RO‘YXATI

Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri
Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri
Qoraqalpoq davlat qo‘g‘irchoq teatri
“Ayqulash julduzlari” Qoraqalpoq davlat milliy folklor ansambli
“Amu to‘lqini” Qoraqalpoq davlat folklor-etnografik ansambli
“Gulzor” Qoraqalpoq davlat folklor ansambli
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Nukus filiali
Qoraqalpog‘iston Respublikasi ko‘zi ojizlar kutubxonasi
O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘linmasi va uning tarkibiga kiruvchi jamoalar
Qoraqalpog‘iston Respublikasi ko‘chma sirki (shapito, dorbozlar guruhlari)
Qoraqalpog‘iston Respublikasi hayvonot bog‘i

Toshkent shahri

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatri
O‘zbekiston davlat musiqali komediya (operetta) teatri
O‘zbek Milliy akademik drama teatri
O‘zbekiston davlat drama teatri
O‘zbekiston davlat satira teatri
O‘zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri
O‘zbekiston davlat yoshlar teatri
O‘zbekiston davlat akademik rus drama teatri
Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatri
O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatri
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

Respublika musiqa va san’at kolleji
Karim Zaripov nomidagi Respublika estrada va sirk kolleji
R. Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi
V. Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi
Respublika xoreografiyaga ixtisoslashtirilgan maktab-internati
“Diydor” yoshlar eksperimental teatr-studiyasi” davlat muassasasi
“Tomosha” bolalar musiqiy teatr-studiyasi” davlat muassasasi
Toshkent davlat konservatoriyasi huzuridagi musiqali teatr-studiya
O‘zbek milliy maqom san’ati markazi
Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Bahor” davlat raqs ansambli
Respublika ko‘zi ojizlar kutubxonasi
“O‘zbekiston davlat sirki” davlat birlashmasi
Toshkent zoologiya parki
“Xalqlar do‘stligi” saroyi
O‘zbekiston davlat filarmoniyasi va uning tarkibiga kiruvchi jamoalar*
“O‘zbekiston davlat simfonik orkestri” davlat muassasasi
“Turon” harbiy teatri davlat muassasasi
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari markaziy ashula va raqs ansambli

Andijon viloyati

Andijon viloyati musiqali drama teatri
Andijon viloyati yoshlar teatri
Andijon viloyati qo‘g‘irchoq teatri
Andijon viloyati ko‘zi ojizlar kutubxonasi va uning filiallari
O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Andijon viloyati bo‘linmasi va uning tarkibiga kiruvchi jamoalar
Andijon viloyati ko‘chma sirki (shapito, dorbozlar guruhlari)
Andijon viloyati hayvonot bog‘i

Buxoro viloyati

Buxoro viloyati musiqali drama teatri
Buxoro viloyati qo‘g‘irchoq teatri
Buxoro viloyati ko‘zi ojizlar kutubxonasi va uning filiallari
O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Buxoro viloyati bo‘linmasi va uning tarkibiga kiruvchi jamoalar
Buxoro viloyati ko‘chma sirki (shapito, dorbozlar guruhlari)
Buxoro viloyati hayvonot bog‘i
Buxoro madaniyat saroyi” davlat muassasasi

Jizzax viloyati

Jizzax viloyati musiqali drama teatri
Jizzax viloyati qo‘g‘irchoq teatri
Jizzax viloyati ko‘zi ojizlar kutubxonasi va uning filiallari
O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Jizzax viloyati bo‘linmasi va uning tarkibiga kiruvchi jamoalar
Jizzax viloyati ko‘chma sirki (shapito, dorbozlar guruhlari)
Jizzax viloyati hayvonot bog‘i

Qashqadaryo viloyati

Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri
Qashqadaryo viloyati qo‘g‘irchoq teatri
Qashqadaryo viloyati ko‘zi ojizlar kutubxonasi va uning filiallari
O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Qashqadaryo viloyati bo‘linmasi va uning tarkibiga kiruvchi jamoalar

Qashqadaryo viloyati ko‘chma sirki (shapito, dorbozlar guruhlari)
Qashqadaryo viloyati hayvonot bog‘i

Navoiy viloyati

Navoiy viloyati musiqali drama teatri
Navoiy viloyati ko‘zi ojizlar kutubxonasi va uning filiallari
Navoiy viloyati qo‘g‘irchoq teatri
O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Navoiy viloyati bo‘linmasi va uning tarkibiga kiruvchi jamoalar
Navoiy viloyati ko‘chma sirki (shapito, dorbozlar guruhlari)
Navoiy viloyati hayvonot bog‘i

Namangan viloyati

Namangan viloyati musiqali drama teatri
Namangan viloyati ko‘zi ojizlar kutubxonasi va uning filiallari
O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Namangan viloyati bo‘linmasi va uning tarkibiga kiruvchi jamoalar
Namangan viloyati ko‘chma sirki (shapito, dorbozlar guruhlari)
Namangan viloyati hayvonot bog‘i
Namangan viloyati qo‘g‘irchoq teatri

Samarqand viloyati

Samarqand viloyati musiqali drama teatri
Samarqand viloyati rus drama teatri
Samarqand viloyati qo‘g‘irchoq teatri
Kattaqo‘rg‘on shahar drama teatri
Samarqand viloyati ko‘zi ojizlar kutubxonasi va uning filiallari
Samarqand zoologiya bog‘i
O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Samarqand viloyati bo‘linmasi va uning tarkibiga kiruvchi jamoalar
Samarqand viloyati ko‘chma sirki (shapito, dorbozlar guruhlari)
Samarqand viloyati hayvonot bog‘i

Sirdaryo viloyati

Sirdaryo viloyati musiqali drama teatri
Sirdaryo viloyati ko‘zi ojizlar kutubxonasi
O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Sirdaryo viloyati bo‘linmasi va uning tarkibiga kiruvchi jamoalar
Sirdaryo viloyati ko‘chma sirki (shapito, dorbozlar guruhlari)
Sirdaryo viloyati hayvonot bog‘i
Sirdaryo viloyati qo‘g‘irchoq teatri

Surxondaryo viloyati

Surxondaryo viloyati musiqali drama teatri
Surxondaryo viloyati qo‘g‘irchoq teatri
Surxondaryo viloyati ko‘zi ojizlar kutubxonasi va uning filiallari
Termiz hayvonot bog‘i
“Surxondaryo san’at saroyi” davlat muassasasi
O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Surxondaryo viloyati bo‘linmasi va uning tarkibiga kiruvchi jamoalar
Respublika baxshichilik san’ati markazi
Surxondaryo viloyati ko‘chma sirki (shapito, dorbozlar guruhlari)

Toshkent viloyati

Toshkent viloyati musiqali drama teatri
Toshkent viloyati ko‘zi ojizlar kutubxonasi va uning filiallari
Toshkent viloyati qo‘g‘irchoq teatri
O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Toshkent viloyati bo‘linmasi va uning tarkibiga kiruvchi jamoalar
Toshkent viloyati ko‘chma sirki (shapito, dorbozlar guruhlari)
Toshkent viloyati hayvonot bog‘i

Farg‘ona viloyati

Farg‘ona viloyati musiqali drama teatri
Farg‘ona viloyati rus drama teatri
Farg‘ona viloyati qo‘g‘irchoq teatri
Qo‘qon shahar musiqali drama teatri
Islom Karimov nomidagi Farg‘ona viloyati teatr-konsert saroyi
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona viloyati filiali
Farg‘ona viloyati ko‘zi ojizlar kutubxonasi va uning filiallari
Farg‘ona hayvonot bog‘i
O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Farg‘ona viloyati bo‘linmasi va uning tarkibiga kiruvchi jamoalar
“O‘zbek milliy maqom san’ati markazi huzuridagi Marg‘ilon shahar musiqali maqom teatri” davlat muassasasi
Farg‘ona viloyati ko‘chma sirki (shapito, dorbozlar guruhlari)

Xorazm viloyati

Xorazm viloyati musiqali drama teatri
Xorazm viloyati qo‘g‘irchoq teatri
Xorazm viloyati ko‘zi ojizlar kutubxonasi va uning filiallari
O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Xorazm viloyati bo‘linmasi va uning tarkibiga kiruvchi jamoalar
Xorazm viloyati ko‘chma sirki (shapito, dorbozlar guruhlari)
Xorazm viloyati hayvonot bog‘i.

Vazirlar Mahkamasining
1995-yil 28-oktabrdagi 415-son qaroriga
2-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 20-oktabrdagi PF-1280-son Farmoni tatbiq etiladigan Teatr-konsert va boshqa madaniy-ma’rifiy muassasalarning ma’muriy-boshqaruv, badiiy-rahbar, badiiy, artist, texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlari, shuningdek, mutaxassislarining, ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari hamda konsertmeysterlarning lavozimlari

RO‘YXATI

I. Ma’muriy-boshqaruv xodimlari

1. Bosh direktor (direktor), bosh direktorning o‘rinbosari (direktor o‘rinbosari), menejer
2. Bosh buxgalter (bosh buxgalter o‘rinbosari), bosh muhandis, bosh zoomuhandis, bosh energetik, bosh ma’mur, bosh zootexnik, bosh fondlar saqlovchisi
3. Sex boshlig‘i, bo‘lim boshlig‘i
4. Bo‘lim mudiri, libosxona mudiri, chipta byurosi mudiri, ombor mudiri, ozuqa oshxonasi mudiri, veterinariya klinikasi mudiri, dorixona mudiri, filial mudiri

II. Badiiy-rahbar xodimlar

1. Badiiy rahbar
2. Bosh rejissor, bosh dirijer, bosh baletmeyster, bosh xormeyster, bosh rassom

3. Truppa mudiri, badiiy-sahnalashtirish qismi mudiri, adabiy qism mudiri, musiqiy qism mudiri

III. Badiiy xodimlar

1. Sahnalashtiruvchi rejissor, sahnalashtiruvchi baletmeyster, sahnalashtiruvchi rassom
2. Modelyer rassom, bezakchi rassom, chiroq bo‘yicha rassom, qo‘g‘irchoqshunos, o‘yinchoq-qo‘g‘irchoqlar bezatuvchisi, dekorator
3. Dirijyor, xormeyster, baletmeyster
4. Vokal sinfi bo‘yicha konsertmeyster, balet sinfi bo‘yicha konsertmeyster
5. Balet repetitori, vokal repetitori, sirk nomerlari repetitori
6. Rejissyor, rejissor yordamchisi
7. Xormeyster yordamchisi, dirijyor yordamchisi, baletmeyster yordamchisi
8. Ovoz rejissori, ovoz operatori
9. Tashkilotchi pedagog (repetitor), manej inspektori

IV. Artist xodimlar

1. Yetakchi sahna ustasi
2. Barcha toifalardagi balet artisti
3. Barcha toifalardagi artist-vokalchi (yakkaxon xonanda)
4. Barcha toifalardagi xor artisti
5. Barcha toifalardagi (simfoniya, kamer) orkestr artisti
6. Barcha toifadalargi drama artisti
7. Barcha toifalardagi instrumental artist
8. Barcha toifalardagi barcha janrlardagi sirk artisti
9. Yordamchi tarkib artisti

V. Mutaxassislar

1. Barcha toifadagi buxgalter, iqtisodchilar
2. Muhandis
3. Barcha nomdagi mutaxassislar
4. Matbuot kotibi, ma’mur, assistent, kadrlar bo‘yicha inspektor
5. Vrach, veterinar vrach (feldsher), bioximik vrach, toksikolog vrach, laborant
6. Barcha toifalardagi agronomlar va zootexniklar
7. Barcha toifalardagi ilmiy xodimlar va metodistlar
8. Fondlarni saqlovchilar
9. Barcha toifalarlardagi kutubxonachilar, bibliograflar, veb-dasturchilar va ekskursovodlar

VI. Texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar

1. Butafor, grimchi-postijer, kostyumchi, uniformist
2. Poyabzalchi, tikuvchi, bichuvchi, kassir, chiptachi-kassir, musiqa asboblarini sozlovchi
3. Sahna mashinisti, sahna montajchisi, yorituvchi, kutubxonachi (nota bo‘yicha)
4. Otlar murabbiylari
5. Yirtqich hayvonlar va hayvonlarga qarovchi ishchi

VII. Ta’lim muassasalari

1. O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti hamda uning filiallari, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining rektorlari, prorektorlari, dekanlari, konsertmeysterlari va professor-o‘qituvchilari, R. Glier va V. Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabi, Karim Zaripov nomidagi Respublika estrada va sirk, Respublika musiqa va san’at kolleji, Respublika xoreografiyaga ixtisoslashtirilgan maktab-internati direktorlari, direktor o‘rinbosarlari, o‘qituvchi va konsertmeysterlari tarkibi.
2. San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy xodimlari